



O'QUVCHILAR BILIMINI BAHOLASHNING TURLARI VA PEDAGOGIK AHAMIYATI

*Ajiniyoz nomidagi NDPI Magistratura bo'limi "Testologiya va bilimlarni
baholash" mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

Tilewmuratova Ayjamal

Tayanch tushunchalar: *Bilimni baholash, bilimni baholashning turlari, baholash mezonlari, baholashning ahamiyati, ta'lim jarayoni, amaliy ko'nikma va ilmiy tajriba, nazariy bilimlar, baholash darajasi, qiyosiy baholash.*

Annotatsiya: *Ilmiy maqolada o'quvchilar bilimini baholashning ahamiyati, bilimni baholashning turlari, baholash usullari, shuningdek, bilimni baholashda qiyoslashning afzalliklari keng yoritilgan.*

Ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv materiallari o'zlashtirilganligini, ko'nikma va malakalar hosil qilinganligini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining zaruriy qismidir. Bu nafaqat o'qitish natijalarini kuzatish, balki o'quv jarayonining turli bosqichlarida ta'lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilishdir. Baholash - ta'lim jarayonining muayyan bosqichida o'quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o'lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir. Bilimlarni tekshirish va baholashning ta'limga oid ahamiyati shundan iboratki, bunda o'quv materialining o'zlashtirilganligi ta'lim beruvchi, ta'lim oluvchi ham maxsus bir ma'lumotga ega bo'ladi. Baholash natijasida, o'qituvchi uchun ta'lim oluvchilarning nimani bilishi va nimani bilganligi, materialning qaysi tomonlari chala yoki to'liq o'zlashtirganligi ma'lum bo'ladi. Bu ta'lim oluvchining bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, baholash natijalari ta'lim beradigan o'quv dasturidagi materiallarni ta'lim oluvchilarning bilish imkoniyatlari nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqishi va baholashi uchun ham juda zarurdir. Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysilari qiyin, qaysilari esa oson



o'zlashtirilishi oydinlashadi. Bu ta'lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorlanishi va o'quv mashqlarini mustaqil bajarishiga motivatsiya bo'lishi shubhasiz. Bilimlarni tekshirmaslik, baholamaslik bu ta'lim beruvchi va oluvchilarning o'quv materiallarini qanday darajada o'zlashtirilayotganligi to'g'risida ma'lum bir ma'lumotga ega bo'lmasligiga olib keladi. Ba'zan unga u o'quv materiallarini yaxshi egallab olgandek tuyuladi, tekshirish jarayonida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmaganligi ma'lum bo'lib qoladi. Baholash natijasida ta'lim oluvchilarning o'rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, xotirada saqlab qolish, anglab olish, amalda qo'llay olish, tahlil qilish va o'z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi. Bilimlar, ko'nikma va ilmiy tajribalarni tekshirish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta'lim oluvchilarning o'qishga, o'z yutuqlari va kamchiliklariga mustaqil taqqoslay olish imkoniyati shakllanadi, shuningdek, qiyinchiliklarni yengishga erisha oladi. Bilimni tekshirish va baholash doimo ta'lim oluvchining shaxs sifatida o'ziga nisbatan maxsus bir munosabatini vujudga keltirishi muqarrar. Ta'lim beruvchi ta'lim oluvchining o'ziga nisbatan munosabatini, his-tuyg'ularini, uning xarakteridagi g'ayrat, sheriklik, o'zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga qaratishi kerak bo'ladi. Ba'zan baholash jarayonida ta'lim oluvchi qo'shimcha bilim, ko'nikma va ilmiy tajribalarga ham ega bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'zlashtirilmagan tushunchalarning mohiyatini anglab yetadi. Shu sababli, baholashni ta'lim olish jarayonining davomi deb ham hisoblash mumkin. O'quvchining bilimlariga berilgan baholar uning o'qishga, bilim olishga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Ana shu sababli ham maqtash, ma'qullash, tanbeh berish, yaxshi yoki yomon baho qo'yish ta'lim oluvchi shaxsining fazilatlarini, uning tengdoshlari jamoasidagi va kattalar orasidagi pozitsiyasini shakllantiradi. Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga ega hisoblanadi. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta'lim muassasasi jamoasining ta'lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasiga baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi.



Davlat ta'lim standartlarida davlat tomonidan qo'yilgan talablar qanchalik bajarilayotganligi aniqlanadi. O'quvchilar bilimni baholash orqali bir vaqtning o'zida butun ta'lim tizimi va uning komponentlari tekshirib ko'rilishi kerak. Bu bilan ta'lim tizimida kutilgan natijaga erishish darajasi tekshirib o'lchanadi. Bilimlarni uzluksiz baholab borish ta'lim rejasi, uning katta-kichik qismlari asosida amalga oshiriladi. Ta'lim tizimi natijalari maxsus bir standart me'yor orqali ifodalanadi. Baholash natijasida nafaqat ta'lim oluvchining, balki ta'lim beruvchining kuchli va zaif tomonlari, shu bilan birga, o'quv jarayonidagi kamchiliklari ham aniqlanadi. Ta'lim vositalari, loyihalari, ta'lim jarayonini tashkil etish sifatiga ham baho beriladi. Ta'lim dasturining bo'lim va qismlari bo'yicha uzluksiz baholab borish pirovard natijada aniq va adolatli baholashning shakllanishiga olib keladi. Kichik bo'limlar bo'yicha baholash, jamlash va umumlashtirish yakuniy baholashning aniq bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim oluvchining uzluksiz ravishda o'z natijalari haqida xabardor qilib turish, uning ma'lum bir maqsadga intilishiga va orzularini amalga oshirishiga ijodiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim berish davomidagi nazorat natijalarini o'lchab borish bilim, ko'nikma va ilmiy tajribalarni baholash o'quvchining o'zligini anglashi uchun yana bir imkoniyatdir.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi tavsiyalarni berish mumkin va bilimni baholashda bu tavsiyalarni tizimli rahbarlikka olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

- O'quv maqsadlariga erishilganligini aniqlash,
- keyingi bosqichga o'tishdan oldin oldingi o'zlashtirish darajasini aniqlash.
- natijaga erishilganligini tasdiqlash,
- o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash,
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash;
- o'qituvchi o'z faoliyatiga baho bera olishi;
- o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish darajasini aniqlash,
- ta'lim jarayoni yutuqlarini aniqlash,



- o'quvchilarni ilm-fan yutuqlariga qiziqtirish hamda boshqa o'quvchilar bilimini tekshirish va baholashga tegishli bo'lgan xalq ta'limi vazirligi, bo'linmalari, ta'lim-tarbiya muassasalari rahbarlari tomonidan berilgan ko'rsatmalarni amalda qo'llash har bir pedagog-xodimning asosiy vazifalaridan biri bo'lishi kerak. Bu vazifalarni puxta amalga oshirishda pedagog-xodimlar ota-onalar bilan uzviy bog'liq bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, nazariy bilimlar baholanishi jarayonida faoliyatning kognitiv sohasiga oid o'quv maqsadlariga erishilganlik darajalari aniqlanadi. Baholash mezonlari. Har qanday baholash natijalari o'zaro taqqoslanishi, ya'ni o'lchanishi kerak bo'ladi. Ularni taqqoslash baholashdan oldin yoki keyin ishlab chiqilgan mezonlar asosida amalga oshirilishi mumkin. Baholash mezonlari o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganligini ifodalovchi ko'rsatkichdir. Bu ko'rsatkichlar raqamlar ("besh," "to'rt," "uch" va hokazo), so'zlar ("alohida," "yaxshi," "qoniqarli" va hokazo) yordamida belgilanishi mumkin. Bilimni baholashda ushbu besh balli mezondan tashqari 100 balli tizimda bilimni baholash ishlari ham amalda qo'llanilmoqda. Bilimni tekshirish va baholash o'ta muhim va murakkab, mashaqqatli ishlardan biridir. So'nggi yillarda rivojlangan davlatlarda bilimni tekshirish va baholashning bir necha shakllari joriy etilmoqda. Ulardan ayniqsa Finlyandiya, Niderlandiya, Xitoy, Koreya, Yaponiya va Singapurda "PISA" baholash ro'yxati ta'lim tizimida yo'lga qo'yilgan.

Baholash uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o'tkazilishi mumkin:

1. Mezonlarga asoslangan baholash
2. Normaga asoslangan baholash.

Mezonga asoslangan baholash - baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini, bilim, ilmiy tajriba va ko'nikmalarini oldindan belgilangan o'quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko'ra taqqoslash va boshqa o'lchovdan iborat bo'lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beradigan o'quv maqsadlari



bo'yicha natijalarga nom berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to'g'ridan-to'g'ri va xolis baholanadi, shu bilan birga, kuchli guruhlarini kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Ushbu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholovchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga solishtiriladi va o'lchanadi.

Mezonlarga asoslangan baholashning afzalliklari:

- O'quv maqsadiga muvofiq baholanadi.
- Ta'lim oluvchining o'zlashtirish darajasini obyektiv baholaydi.
- Ta'lim oluvchi olgan bahosida yo'l qo'ygan xatolarini aniq ko'rsatib beradi.
- Baholanuvchini ta'lim olishga yo'naltiradi.

Me'yorga asoslangan baholash - qiyosiy baholash shakli bo'lib, u baholashda keyin baholanuvchining ta'lim jarayonida qo'lga kiritgan natijalarini o'zaro taqqoslash orqali o'lchasdan iborat. Bu baholash shakli ham ikki bosqichdan iborat bo'lib, birinchi bosqichda baholovchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o'zaro taqqoslash orqali o'lchanadi. Normallashtirilgan (normaga asoslangan) baholashda baho bir necha ko'rsatkichlarga va ta'lim olish sharoitiga ko'ra o'zgarishi mumkin bo'ladi. Masalan, o'qituvchida mehrning paydo bo'lishi, o'qituvchining o'ta qattiqqo'lligi tufayli ham baho o'zgarishi mumkin.

O'quvchilar bilimini baholashning pedagogik ahamiyati va turlari bo'yicha yuqoridagi fikrlar hozirgi vaqtda juda dolzarb muammolarni paydo qilishi shubhasiz. Biz hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilib kelinayotgan baholash mezonlaridan unumli foydalanish bilan birga rivojlangan davlatlarning ham bilimni baholash tizimlarini o'rganish, ommalashtirish va amalda qo'llash davr talabidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. «O'zbekiston» T, 2016.



2. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga qúramiz. «O'zbekiston» T, 2017.
3. Qosnazarov. Q. Pazilov. A. Tlegenov.A “Pedagogika”. Nókis, «Bilim» 2009.
4. Munavvarov A.Q. Umumiy tahriri ostida. Pedagogika. T.: «O`qituvchi», 1996 .
5. Mavlanova R. va boshqalar. Pedagogika. T.: 2002.
6. Saparbaev T. “Pedagogikanin pragmatik aspektleri ” Nókis “ PRINT DARHAN” 2025
7. Saparbaev T “Mektep dógerek jumislarinin pedagogikalik áhmiyeti” Nókis “NMPI baspası” 2025

Elektron manbalar;

1. [www. tdpu. Uz](http://www.tdpu.uz)
 2. [www. pedagog. Uz](http://www.pedagog.uz)
 3. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.uz)
-